

**IMKONIYATI CHEKLANGAN INSONLARNING PSIXOLOGIK
XUSUSIYATLARI****Matniyazova G.P.**

*Qoraqalpog'iston Respublikasi,
Qonliqo'l tumani «Inson» ijtimoiy xizmatlar
markazi (psixologlar guruhi) bosh mutaxassisi*

**MAQOLA
MALUMOTI****ANNOTATSIYA:**

MAQOLA TARIXI: *Bu maqolada imkoniyati cheklangan insonlar psixologiyasi – ular bilan qanday munosabatda bo'lish qoidalari, ularning shaxsiyati tizimida bo'ladigan o'zgarishlar batafsil yoritib berilgan.*

Received: 27.11.2025
Revised: 28.11.2025
Accepted: 29.11.2025

KALIT SO'ZLAR:

*nogironlik,
konstruktiv, shaxs,
munosabatlar tizimi,
munosabat, muloqat,
xulq-atvor, emotsiya,
o'z-o'ziga baho.*

Imkoniyati cheklangan insonlar psixologiyasi o'z murakkabligi bilan ajralib turadi, chunki unga birinchi navbatda kasallik tufayli paydo bo'lgan emotsional muammolar, ya'ni asteniya, apatiya, o'zini baholashining beqarorligi va jamiyatga ruhan yopilish kabi holatlar qattiq ta'sir ko'rsatadi. Biz shuni unutmashimiz kerakki nogironlik inson shaxsini ko'rsatib bermaydi, nogironligi bor insonlar ham boshqalar kabi o'z ehtiyojlariga ega, ularning psixologik holati esa ko'p gina omillarga, ya'ni ijtimoiy qo'llab-quvvatlash va kishining chidamliligiga bog'liq bo'ladi.

Imkoniyati cheklangan (nogiron) - bu shaxsiy ehtiyojlarini va ijtimoiy hayot etishmovchiliklarini qisman yoki to'liq o'zi mustaqil ta'minlay olmaydigan istalgan shaxs. Nogironlik qabul qilingan qilingan ko'ra organizmdagi doimiy buzilishlarga olib keluvchi,

hayot faoliyatining cheklanishiga sabab bo'luvchi, alohida ijtimoiy qo'llab-quvvatlashga ehtiyoj tug'diruvchi ijtimoiy zaiflik sifatida talqin etiladi.

BMT ma'lumotlariga ko'ra taxminan 450 mln. insonda psixik va jismoniy rivojlanishda buzilishlar mavjudligi aniqlangan. Bu er yuzidagi aholining 1/10 qismini tashkil qiladi.

Xalqaro ijtimoiy zaiflik va cheklangan hayot faoliyati hamda buzilishlar nomenkulasurasiga muvofiq "hayot faoliyatining cheklanganligi tushunchasi ostida berilgan yosh davri uchun normal hisoblangan faoliyatni bajarish, yoki uni bajarish usullarini amalga oshirishdagi har qanday cheklanganlik tushuniladi".

Imkoniyati cheklangan insonlarning asosiy muammosi quyidagilarda:

- olam bilan aloqaning buzilganligi;
- kattalar va tengdoshlari bilan aloqaning qashshoqligi;
- tabiat bilan muloqotning cheklanganligi;
- bir qator madaniy qadriyatlarining etishib bo'lmashligi muammosi;
- elementar ta'limni ololmaslik.

Bu muammolar faqatgina sub'ektiv bo'lmay, balki ijtimoiy-siyosiy hamdir.

Shuningdek, imkoniyati cheklangan insonlarning emotsional holati va psixikasining o'ziga xosligini talqin qiladigan bo'lsak, ular quyidagicha:

- emotsional buzilishlar: bu holat emotsional jihatdan beqarorlik, apatiya yoki asteniya shaklida ko'rinishi mumkin;
- o'ziga bo'lgan bahosi: ko'pincha destruktiv yoki defitsitar bo'ladi, shu bilan bir qatorda o'z holatining og'irligiga jiddiy e'tibor bermasliklari ko'rinishida bo'ladi;
- infantilizm va ijtimoiy qaloqlik: bu turmush tarzi va atrof-muhit bilan munosabatlarining o'ziga xosligiga bog'liq rivojlanishi mumkin;
- ijtimoiy muammolar: o'z ichki dunyosiga qamalib olishi mumkin va muloqat doirasining torayishi kuzatilishi mumkin.

Shu bilan bir qatorda nogironlik shu insonning shaxsiga ham ta'sir ko'rsatadi, ya'ni:

- munosabatlar tizimining o'zgarishi: nogironlik insonning o'z-o'ziga, boshqalarga va atrofidagi olamga bo'lgan munosabatlar tizimining o'zgarib ketishiga olib kelishi mumkin;
- ijtimoiy va psixologik nogironlik: bu jarayon xuddi hayotning oldingi bosqichlarida tayyorlab qo'yilgandek sezilishi mumkin;
- yosh davrlaridagi o'zgarishlar: boshqalar haqida qayg'urish va ijodiy salohiyat ularning o'zini-o'zi sindirishi va shaxs sifatida qashshoqlashishining oldini olishga yordam berishi mumkin.

=====

Nogironligi bor insonlar haqida nimalarni bilish kerak va ular bilan qanday muloqat qilish kerak degan savolga quyidagicha javob berish mumkin:

- ular bilan to'g'ridan-to'g'ri muloqat qiling: nogironligi bor inson bilan gaplashayotganda unga hamrohlik qilayotgan yoki uning tarjimoniga emas, balki uning shaxsan o'ziga murojaat qiling;

- yordam qo'lini cho'zing: lekin unga yordam kerakmi, yoki kerak emasmi, deb tanlashni o'ziga qo'yib berib majburlamang;

- xushmuomala va hurmatda bo'ling: nogironligi bor odamga ham xuddi boshqa har qanday odamga qilgan munosabatingizni qiling, uning shaxsiy xudidiga e'tiborli bo'ling va uni hurmat qiling;

- e'tiborli va sabrli bo'ling: u insonning muloqatda yoki harakatlanishda qiynalayotganligini tushuning va sabrli bo'ling.

Bunday munosabatlarning barchasi nogironligi bor insonlarning shaxsiyatiga tegib olmaslikka katta yordam beradi.

V.N. Myasishchevning tadqiqot ishlarida shaxs tushunchasiga ijtimoiy va organik birlik sifatida ta'rif berilgan. Bu esa bemor shaxsning nogironlik vaziyatida munosabatlar tizimining o'zgarib ketishini tushunishga yordam beradi.

Xulosa o'rnida shuni aytish mumkinki, nogironligi bor insonlarining psixologik sog'lig'ini saqlash, ya'ni ular bilan ehtiyotkorlik bilan munosabatda bo'lish konstruktiv tus olishi, ya'ni ularning o'zlarining nogiron ekanligini unutishiga ham olib kelishi mumkin. Bunday hollarda rehabilitatsiya ishlari haqida o'ylasa maqsadga muvofiq bo'ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Психология инвалидности: Метод. указания / Сост. Н.А. Соловьева; Яросл. гос. ун-т. — Ярославль, 2004.

2. Черничкина В.А. Социально-психологические проблемы инвалидов и основные стратегии их разрешения; дис... канд. психол. наук. — Ярославль, 2003.